Ismailova Guzal Fayzullayevna (Navoiy davlat universiyeti tayanch doktoranti; ismailovaguzal545@gmail.com)

TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA FANLARARO MUSTAQIL TA'LIM INTEGRATSIYASINI QO'LLASH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rni va imkoniyatlari keng ochib berilgan. Mustaqil ta'lim topshiriqlari kasbiy rivojlanishda eng asosiy vosita bo'lib, uni to'g'ri tashkil qilish har bir pedagog oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil qilishda eng samarali metodikalardan biri esa fanlararo integratsiya bo'lib, ushbu yondashuv talabani topshiriqlarga tanqidiy va tahliliy yondashgan holda o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni kreativlik bilan bajarishga undaydi. Mustaqil ta'lim topshiriqlarini fanlararo integratsiya qilgan holda, tashkil qilish va bajarish bugungi kundagi eng zamonaviy hamda tez maqsadga olib boruvchi metodikalardan biridir.*

Kalit so'zlar: *kasbiy kompetensiya, mustaqil ta'lim, integratsiya, kreativlik, tahliliy va tanqidiy fikrlash, kognitiv, refleksiv, motivatsion komponentlar.*

Исмаилова Гузаль Файзуллаевна (Базовый докторант Навоийского государственного университета; ismailovaguzal545@gmail.com)

ПРИМЕНЕНИЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье подробно раскрываются роль и возможности самостоятельного обучения в развитии профессиональной компетентности студентов. Задания для самостоятельной работы являются ключевым средством профессионального развития, а их правильная организация – одна из важнейших задач, стоящих перед каждым педагогом. Одной из наиболее эффективных методик организации самостоятельной образовательной деятельности является междисциплинарная интеграция. Этот подход побуждает студента подходить к заданиям критически и аналитически, творчески выполняя поставленные перед ним задачи. Организация и выполнение самостоятельных учебных заданий с использованием междисциплинарной интеграции является одной из самых современных и эффективных методик, позволяющих быстро достичь поставленных целей в современном образовании.*

Ключевые слова*: профессиональная компетентность, самостоятельное образование, интеграция, креативность, аналитическое и критическое мышление, когнитивный, рефлексивный, мотивационный компоненты.*

Ismailova Guzal Fayzullayevna (PhD student at Navoi State University; ismailovaguzal545@gmail.com)

APPLYING INTERDISCIPLINARY INDEPENDENT LEARNING INTEGRATION IN DEVELOPING STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCE

Annotation*. This article extensively explores the role and potential of independent learning in developing students' professional competence. Independent learning tasks are the primary means of professional development, and their proper organization is one of the most crucial responsibilities for every educator. One of the most effective methods in structuring independent learning activities is interdisciplinary integration. This approach encourages students to approach tasks critically and analytically, prompting them to creatively fulfill the objectives set before them. Organizing and implementing independent learning tasks through interdisciplinary integration is one of the most modern and efficient methodologies in achieving educational goals today.*

Keywords*: professional competence, independent learning, integration, creativity, analytical and critical thinking, cognitive, reflexive, motivational components.*

Kirish. Mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o'rni va taraqqiyoti oshib borishi natijasida oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarga e'tiborni kuchaytirishga zamin yaratilmoqda. Sababi, aynan ular Yangi O'zbekistonning davomchilari bo'lgan yosh avlodning sifatli ta'lim olish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun mustaqil ta'lim olishda o'z sa'y-harakatlarini namoyon qilishlari uchun mas'uldirlar.

Shu tariqa, talabalar mustaqil ta'lim jarayonida o'zlashtirayotgan va integratsiya qilinayotgan fanlar bo'yicha o'z qobiliyati va iste'dodini namoyon etishi uchun mustaqil ta'lim topshirig'idagi talablarni baja-

rishda quyidagilarga e'tibor qaratishlari lozim: bugungi kun ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining zamonaviy yo'nalish va tamoyillarini inobatga olish, kasbiy jihatdan o'zlashtirilayotgan bilim, ko'nikma va malakalarga tayanish hamda kreativ fikrlash. Talabalar ushbu topshiriqlarni bajarishda o'z ijodiy qobiliyatlarini ishga solib, mustaqil ravishda yondashishlari kerak.

Mustaqil ta'lim vositasida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy komponentlaridan biri kreativlik komponentidir. Bu jarayonda talabaning mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda muhim bo'lgan kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish murakkab jarayon bo'lib, kreativ fikrlash mantiqiy, tanqidiy, tahliliy va ijodiy fikrlay olish kabi qobiliyatlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ushbu jarayonni samarali tashkil etish uslubiy jihatdan to'g'ri, izchil va uzluksiz amalga oshirishni talab qiladi.

Shubhasiz, talabalarning ijodiy qobiliyatlari turlicha bo'lib, ularning rivojlanishida ta'lim muassasasida mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etish hamda atrof-muhit muhim rol o'ynaydi. Mustaqil ta'lim jarayonida ba'zi talabalar ijodiy fikrlashning yuqori darajasini namoyish etadilar: ular boshqa talabalar xayoliga kelmagan ilmiy-amaliy g'oyalarni taklif qiladilar, g'oyalarni aniq faktlar asosida asoslaydilar va muhokama qiladilar, o'z fikrlarini o'ziga xos tarzda aniq va lo'nda ifoda etadilar, nostandart savollar beradilar, muammo va masalalarni hal qilishda noan'anaviy yondashuvlarni qo'llaydilar. Shuning uchun bunday talabalarning an'anaviy mustaqil ta'lim olishi ularning ijodiy va kasbiy salohiyatini pasayishiga olib keladi. Shu maqsadda mustaqil ta'limning fanlararo integratsiyasini qo'llashni maqsadga muvofiq deb topdik, bu esa qo'yilgan muammo va vazifalarning aniq yechimlarini topishda mustaqil ta'lim jarayonida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishni takomillashtirishga imkon beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Integrallashgan ta'lim orqali talabaning kasbiy kompetensiyasini baholash ham nazariy, ham amaliy jihatdan juda murakkab vazifadir. Shunda ta'lim metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash mustaqil ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga mos kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni taqozo etadi. Komponent yondashuv oliy ta'limni modernizatsiyalash nuqtayi nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi.

Bunday pedagogik voqelikda asosiy qiyinchilik shundaki, kasbiy kompetensiya faqat amaliy faoliyatda shakllanadi va namoyon bo'ladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida ushbu faoliyatni rejalashtirish va tashkil etish zarur. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish muammolariga M.N.Muslimov, O.Qo'ysinov, Q.M.Abdullayeva, I.A.Zimnyaya, V.D.Simonenko, A.V.Xutorskiy [1;61–64-b.] kabi olimlarning ishlari bag'ishlangan. Aksariyat olimlar kasbiy kompetensiya tushunchasini shaxsning integral sifati sifatida ochib beradilar. Shunday qilib, ta'lim jarayonini integratsiya qilishda, o'rganilayotgan fanlarni to'liq o'rganish va ular haqida tasavvurga ega bo'lish uchun fanlararo komponentlikni hisobga olish zarur.

Integratsiyalashgan ta'lim jarayonlari murakkab tuzilishga ega bo'lib, rivojlanishning ko'plab jihatlari bilan tavsiflanadi va amalga oshirishning turli darajalari bilan ajralib turadi.

Pedogogik-psixologik adabiyotlarda integratsiyalashgan ta'lim bilimlarning o'zaro singishi, zichlashishi va birlashuvi jarayoni sifatida ta'riflanadi. I.D.Zverev integratsiyani uzluksiz bog'langan, yagona, yaxlitlikni yaratish jarayoni va natijasi sifatida ochib beradi [2;160-b.]. Ta'lim jarayonida u turli o'quv fanlari elementlarini birlashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin. A.Y.Danilyuk ta'kidlaganidek, integratsiya yakka holda mazmun yaratmaydi, balki ta'lim tizimida bilim va ong integratsiyasida pedagogik faoliyat jarayonini ta'minlaydi. Bunda mavjud bilimlarni "tuzilish" emas, balki ularni qayta anglash, refleksiya va korreksiya qilish sodir bo'ladi.

Shunday qilib, mustaqil ta'lim jarayonida integratsiyalashgan ta'limni qo'llash o'quv materiallarini samarali darajada sifatini oshiradi, talabalarga mustaqil ta'lim jarayonidagi olingan bilimlarni kelajakda to'liqroq va ongliroq tarzda qo'llashga imkon beradi. Integratsiyalashgan ta'lim jarayonida fanlararo mustaqil ta'limni olib borilish ta'lim faoliyatini jonlantiradi, o'quv vaqtini tejaydi, charchoqni kamaytiradi va tafakkurni kelajakka yo'naltiradi. Bundan tashqari, integratsiyalashgan ta'lim dunyoga yaxlit qarashni shakllantirishga, hodisa va jarayonlarning mohiyati, o'zaro aloqalarini tushunishga yordam beradi.

Tadqiqotchi B.R.Muqimovning ta'kidlashicha, "Mustaqil ta'lim jarayonida darslik, o'quv qo'llanma va o'qituvchining alohida ahamiyatini ta'kidlash kerak emas, balki ta'lim oluvchini fanlararo mavzularda ilg'or g'oyalar, ilmiy xulosalar, amaliy haqiqatlar, voqealar yoki inson shaxsiga o'z munosabatini bildirishga yo'naltirish kerak" [3;76-b.].

M.Y.Borisova esa integratsiyalashgan ta'lim jarayoni doirasida mustaqil ta'limni tadqiq etish strategiyasi va shart-sharoitlari sintezini ko'rib chiqqan. Olimaning fikricha, mustaqil ta'limga integratsiyalashgan yondashuv nafaqat mazmun komponentlarini birlashtirish, o'zaro bog'lash, o'zaro singdirish va sintez

qilish jarayonini nazarda tutadi, balki ta'lim muassasasining o'ziga xos shart-sharoitlari va vazifalariga muvofiq intensiv o'qitish usullarining rolini ham ta'kidlaydi [4;68–69-b.].

Talabalarning mustaqil ta'lim jarayonida kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yordam beruvchi ta'lim sharoitlarini yaratishda metod, interfaol metod va texnologiyalarning ahamiyati juda katta. Shu sababli, ilmiy tadqiqot ishimizda mustaqil ta'lim jarayonida interfaol ta'lim shakllarini, jumladan, topshiriq va vazifalarni tahlil qilish uchun fanlararo ta'lim integratsiyasi metodini qo'llashni maqsadga muvofiq deb topdik. Ushbu metod ijodiy tafakkurni rivojlantirishning faollashtiruvchi yondashuvlaridan biri hisoblanadi.


Tadqiqod metadologiyasi. Mustaqil ta'limning fanlararo integratsiyasi metodi o'ziga xos va jozibador darajali tuzilmani taklif etadi, chunki u turdosh yoki turli fanlarni moslashuvchan tarzda o'rganish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, sizning ilmiy qiziqishlaringiz va kasbiy maqsadlaringizga muvofiq bilim va ko'nikmalarning muayyan kombinatsiyasini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Mustaqil ta'limning fanlararo integratsiya metodi mustaqil ta'limning samarali va ixcham tuzilmasini taklif etadi. Talaba uchun ikkita yoki uchta o'zaro bog'liq yoki turli xil fanlarni o'rganishiga yo'l ochiladi, bu uning fanlari va talabaning maqsadlariga mos keladigan bilim va ko'nikmalar kombinatsiyasini rivojlantirishga imkon beradi. Shu qatorda, mustaqil ta'limni bajarib, ikki yoki uch fandan baholanadi.

Mustaqil ta'limda integratsiya metodidan foydalanish jarayoni fanlararo topshiriqlar bo'yicha yangi materiallar va nazariyalarni o'rganishni osonlashtiradi va vaqtni tejaydi deb o'ylamaslik kerak. Aksincha, fanlararo topshiriqlar tayyorlash va ularni mazmunan fanlarga birlashtirish anchagina vaqt talab etadi. Shunga qaramay, mustaqil ta'limda fanlararo integratsiya usuli fanlararo nazariyani amaliyotda qanday qo'llashni ko'rsatadi. Ko'nikma va malakalarni mustahkamlovchi kasbga yo'naltirilgan texnologiyalar o'z xususiyatlariga ko'ra innovatsion hisoblanadi. Shuning uchun mustaqil ta'limda fanlararo integratsiya metodi nafaqat pedagogik fanlarni o'qitishda, balki boshqa soha va yo'nalishlardagi fanlarni o'qitishda ham talabalarning bilish faoliyatini faollashtiradi. O'qitishning o'ziga xos maqsadlariga bog'liq ravishda integratsion metod unga taqdim etilgan materialning mazmuni va tashkil etilishiga ko'ra turli-tuman, ya'ni tahlil va baholashga o'rgatish xususiyatlari; muammoni yechish va qaror qabul qilishga o'rgatuvchi xususiyatlari; o'quvchining umumiy xususiyatiga mos bo'lgan metod turini tanlay olish, til materialini o'quv jarayoni va o'quvchi ehtiyojiga moslay olish xususiyatlari bo'lishi mumkin.

Mustaqil ta'lim vositasida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha integratsiyalashgan ta'lim jarayonini tashkil etish tuzilmasi ishlab chiqildi (1-rasmga qarang). Mazkur tuzilmadan foydalanib, mustaqil ta'limni bajarish jarayonida fanlararo integratsiya metodini qo'llash orqali talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi

(1-rasm)



1-rasm. Mustaqil ta'limni bajarish jarayonida mustaqil ta'limni fanlararo integratsiyalash metodini qo'llash orqali talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish konsepsiyasi.

Mustaqil ta'limda fanlararo integratsiyalashgan metodning qo'llanilishi ham fanlararo aloqadorlikdan keng foydalanish imkoniyatini taqozo etadi.

Tahlil va natijalar. Mustaqil ta'limda maqsad va vazifalarni amalga oshirish nuqtayi nazaridan ular 4 guruhga bo'linadi:

• eng avvalo, fanlararo bilimlarni shakllantirish va idrok etishga ko'maklashuvchi vazifalarni shakllantirish zarur. Bunda talabalar maqsadga erishish uchun nima talab qilinishini tushunishlari kerak. Topshiriqlar fanlararo ma'lumotlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak;

• mustaqil ta'lim fanlararo ma'lumotlarni o'zlashtirish, shakllantirish, takomillashtirish va qayta ishlashga qaratilgan topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Bunda ilgari olingan bilimlarni to'g'ri qo'llash va faollashtirish asosida bajariladigan va ulardan aniq sharoitlarda foydalanishni talab qiladigan vazifalar beriladi;

• fanlararo tajriba natijasida olingan bilim, ko'nikma va malakalarga yangicha va ijodiy yondashuvni talab qiladigan topshiriqlar. Ularda muammoning mohiyatini topish, yangicha til mashqlarini yosh xususiyatiga ko'ra ishlab chiqish, tayyorlangan o'quv materialini o'quvchi darajasiga, mos ravishda, dizayn qila olish, yangi g'oya va fikrlarni ifodalash talab etiladigan vazifalar beriladi;

• mustaqil ta'limda ijodiy faoliyatni rag'batlantiruvchi, yangi yoki allaqachon ma'lum bo'lgan, ammo boshqa nuqtayi nazardan ko'rib chiqilayotgan g'oya va fikrlarni tadqiq etishga, ya'ni, manbalarni to'plash, ular ustida ishlash va o'z fikrini bildirishga undaydigan topshiriqlar bo'lishi kerak.

Mustaqil ta'limni bajarish, tahlil qilish, yangi o'quv materiali yarata olish, rasmiylashtirish va taqdimot qilishda ijodiy komponentdan foydalanish, mustaqil ta'limning holati va munosabati natijasining uslubini va hatto imkoniyatini ochib ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida biz tadqiq qilayotgan metod orqali talabalarda fanlararo mustaqil ta'limning integrallashtirishning nazariya va amaliyot birligini ta'minlash, kreativ fikrlash, tahlil va taklif etish, qarorlarni qabul qilish va ularning oqibatlariga doir mulohazalarni taqdim etish, noaniqliklar mavjud bo'lgan sharoitda muqobil variantini tanlash va baholash, muloqotga moyillik va notiq bo'lish kabi ijodiy kompetensiyalar rivojlantirilishi mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida talabaning kasbiy kompetentligi tarkibiga kiruvchi komponentlarni aniqlash va ularni shakllantirish zarur. Bunda talabaning mustaqil ta'limini baholash jarayonida bir vaqtning o'zida kasbiy qobiliyatlarni ro'yobga chiqarish hamda fanlararo mustaqil ta'limni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan komponentlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Kreativ komponent –bu tafakkurni rag'batlantiradigan va tartibga soladigan, murakkab va nostandart vaziyatlarda, cheklangan resurslar sharoitida yoki tasavvur tugaganda ham yechim topishga yordam beradigan tayyor algoritmlardir.

Kognitiv komponent–kasbiy ta'lim jarayonida olingan bilim va ko'nikmalar majmuyi bilan bog'liq. Ushbu komponent mustaqil ta'lim orqali egallangan quyidagi bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi: zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlarda kasbiy faoliyatning mohiyatini va uni amalga oshirish xususiyatlarini tushunishni nazarda tutuvchi metodik bilimlar, kasbiy faoliyatning maqsadlari, mazmuni, usullari va shakllarini mustaqil ta'lim bilan integratsiya qilish; shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni sifatida mustaqil ta'lim doirasida shaxsiy-kasbiy faoliyat.

Refleksiv komponent – mustaqil ta'lim jarayonida kommunikativ faoliyat bilan tavsiflanadi, ya'ni: o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini rivojlantirish va barqaror o'z-o'zini takomillashtirishga intilish, bajarilgan ish uchun mas'uliyatni namoyon qilishga tayyorlik, kasbiy sohadagi muammolarni mustaqil va samarali hal qilish qobiliyati.

Motivatsion komponent – bu talabaning o'z sohasi bo'yicha bo'lajak mutaxassislarning bilim, ko'nikma va malaka sifatlarini faol o'zlashtirishga qaratilgan tavsifi.

Tarkibiy komponent–ham kasbiy, ham o'quv dasturining alohida fanlari, shuningdek, ularni o'zlashtirish usullari haqida aniq kompetensiyaviy tasavvurlarga asoslangandagina mustaqil ta'lim jarayonida qiymatga ega bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot vazifalaridan kelib chiqib, mustaqil ta'limning fanlararo integratsiya metodi asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning asosiy manbalari sifatida motivatsion, kreativ, tarkibiy, refleksiv, kognitiv komponentlari hamda shaxsga yo'naltirilgan, onglilik, faollik, tizimlilik va ko'rgazmalilik tamoyillariga e'tibor qaratdik. Komponent va tamoyillar asosida mustaqil ta'lim darajasini tavsiflovchi baholash mezonlarini ilmiy asoslangan mustaqil ta'lim topshiriqlarida amalga oshirish hamda namoyon bo'ladigan shart-sharoitlarni hisobga olish zarurligi aniqlandi.

Mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyalari ham mustaqil ta'lim jarayonida o'qitish metodini to'g'ri tanlash, uning asosida vazifani qo'yish, o'rganish obyektini

tanlash, uning xususiyatlarini aniqlash bilan chambarchas bog‘liqligini hisobga olish zarur. Mustaqil ta’limning uch bosqichli (shakllantiruvchi, tanqidiy-tahliliy va integratsion) jarayonda olib boruvchi fanlar uchun mustaqil ta’lim mavzulari bo‘yicha topshiriqlar ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ishlanma shakli uch qismdan iborat bo‘lib, ularning har birida ishning mazmun-mohiyati, oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalari aniq va ravshan bo‘lib topshiriqlar bajarilishi belgilab qo‘yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Muslimov N. Kasb ta’limi o‘qituvchilari amaliy kompetentligini shakllantirishda ixtisoslik fanlarini o‘rni. Pedagogik ta’lim (ilmiy-nazariy va metodik jurnal), 2012, 61–64-betlar.

(2). Qo‘ysinov O. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda mustaqil amaliy faoliyat ahamiyati. O‘qituvchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalar bo‘yicha kompetentligi: muammo va yechimlar. Vazirlik tizimidagi oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalari miqyosida ilmiy-amaliy anjumani materiallar. Toshkent, TDPU, 2012,, 246–249-betlar.

(3). Abdullayeva Q.M., Norbo‘tayeva D.A. Kasb ta’limi (xizmatlar sohasi) yo‘nalishida mutaxassislik fanlari bo‘yicha yaratilgan o‘quv uslubiy majmualardan foydalanib, talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish. Tafakkur sarchashmalari. Nizomiy nomidagi TDPU. Magistrlarning ilmiy-amaliy maqolalar to‘plami, 2012, 143–144-betlar.

(4). И.А.Зимняя, И.А.Мазаева, М.Д.Лаптева. Коммуникативная компетентность, речевая деятельность, вербальное общение.

(5). И.А.Зимняя. Московский гос. институт международных отношений МИД Россия. Москва, Аспект Пресс, 2020, 400 с. Библиограф. в конц. Авт.: s. 397. ISBN 978-5-7567-1093-9.

(6). Зверев И.Д., Максимова В.Н. Межпредметние связи в современной школе. М., “Педагогика”, 1981, 160 с.

(7). Muqimov B.R. Talabalarni mustaqil ish jarayonida interfaol ta’lim metodlari asosida didaktik kompetensiyasini takomillashtirish. Diss., 2020, 132-bet.

(8). Ismailova G.F Talabalarda mustaqil ta’lim orqali kasbiy kompetensiyani shakllantirishning konseptual asoslari. “Namdu ilmiy axborotnomasi”, 2024, 7-son, 420–422-betlar.

O‘tepbergenov Jetkerbay Saqbergenovich (pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent),
Pirimbetov Seydulla Jumag‘alievich (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti Ta’limda axborot texnologiyalari 2-kurs magistranti),
Iskandarov Sarvar Baltabayevich (Urganch davlat univeristeti “Matematik tahlil” kafedrasi o‘qituvchisi)

INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI INFORMATIKA SOHASIDA QO‘LLASH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalarni informatika sohasida qo‘llashning ahamiyati, imkoniyatlari va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Maqola texnologiyalarni ta’lim, sog‘liqni saqlash, biznes va boshqa sohalarda qanday samarali qo‘llash mumkinligi haqida mulohazalar yuritadi. Xususan, sun’iy intellekt, ma’lumotlar tahlili, bulutli texnologiyalar va blokcheyn kabi ilg‘or texnologiyalarni informatika sohasidagi turli jarayonlarga integratsiya qilish orqali qanday yangi imkoniyatlar ochilayotgani haqida batafsil ma’lumot beriladi. Innovatsion texnologiyalarning yirik kompaniyalar va davlat tashkilotlari tomonidan qabul qilinishi, ularning jamiyat uchun ijobiy ta’siri, shuningdek, ushbu texnologiyalarning kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Maqola, shuningdek, texnologiyalarni qo‘llashda duch kelinishi mumkin bo‘lgan etika, xavfsizlik va qonunchilik masalalariga ham e’tibor qaratadi.*

Kalit so‘zlar: *informatika, innovatsiya, innovatsion texnologiya, pedagogik texnologiya, ta’lim.*

Отепбергенов Жеткербай Сақбергенович (доктор философии по педагогическим наукам, доцент),
Пиримбетов Сейдулла Жумағалиевич (магистрант 2-го курса информационных технологий в образовании Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза),
Искандаров Сарвар Балтабаевич (преподаватель кафедры «Математический анализ» Ургенчского государственного университета)

ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАТИКИ

Аннотация. *В этой статье анализируется значение, возможности и перспективы будущего развития применения инновационных технологий в сфере информатики. В статье обсуждаются эффективное применение технологий в образовании, здравоохранении, бизнесе и других сферах.. В частности, подробно рассказано о том, какие новые возможности открываются благодаря интеграции таких передовых технологий, как искусственный интеллект, анализ данных, облачные технологии и блокчейн, в различные процессы в сфере информатики. Рассматривается принятие инновационных технологий крупными компаниями и государственными организациями, их положи-*